



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING NAMOYON BO‘LISHI

Xudoyorov Fayzullo Bozorovich

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti akademik litseyi
tarix fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonparvarlik tamoyillari qanday ifodalangani, ularning huquqiy va ijtimoiy mazmuni hamda jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tahlil etiladi. Konstitutsiya normalari asosida shaxs erkinligi, ijtimoiy tenglik va inson huquqlari bilan bog‘liq masalalar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, Konstitutsiya, inson huquqlari, erkinlik, demokratik jamiyat, huquqiy davlat.*

Har bir mustaqil davlatning bosh qonuni – Konstitutsiyasi o‘sha jamiyatda hukm suruvchi qadriyatlar, siyosiy tuzum va ijtimoiy mezonlarning ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida belgilab, insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan zamonaviy huquqiy davlat asoslarini barpo etdi. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy qonunchiligimiz aynan insonparvar demokratik jamiyat barpo etish g‘oyasiga tayanadi. 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar bu yo‘nalishda yanada muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Insonparvarlik – bu insonni oliy qadriyat deb bilish, uning sha’ni, qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga yo‘naltirilgan g‘oya va tamoyillardir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida aynan shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati xalq manfaatlariga xizmat qiladi. Demokratiya inson va fuqarolarning huquq hamda



erkinliklarini e'tirof etish va himoya qilishga asoslanadi." Bu norma bevosita insonparvarlik g'oyasining huquqiy ifodasidir.

Konstitutsiya (lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

Har bir mamlakat o'z tarixiga, an'alariga, urf-odatlariga, mentalitetiga ega va bu holat ularning o'z konstitutsiyalarida ham aksini topgan. Biroq ayni paytda demokratik huquqiy davlat tamoyillarida inson huquq va erkinliklarining xalqaro standartlari mavjud. Prezidentimizning Konstitutsiyamiz muallifi xalqimiz ekani to'g'risidagi purma'no so'zlari ushbu jarayon tub mohiyatini ifodalaydi.

Mamlakatimiz fuqarolari o'z hayotiy ehtiyojlari va orzu-umidlaridan kelib chiqib, konstitutsiyaviy normalarni shakllantirishda faol ishtirok etdi va bunda ba'zi hollarda dunyoning boshqa mamlakatlari tajribasida o'zini oqlagan, ijobiy samara bergan dunyo konstitutsionalizmi yutuqlarini yurtimizda qo'llash bo'yicha takliflar, fikr-mulohazalar bildirdi..

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida insonparvarlik goyalarining namoyon bo'lishi davlatning huquqiy asoslarida insonning qadr-qimmati, uning huquqlari va erkinliklariga hurmatni ta'minlashga qaratilgan normalarning yaqqol aks etganligini ko'rsatadi. Konstitutsiya insonparvarlik tamoyillariga asoslangan va bu tamoyillar mamlakatning ijtimoiy va huquqiy tizimida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining asosiy maqsadi — insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. Konstitutsiyaning bir necha moddalarida insonparvarlik prinsiplari o'z aksini topgan: jumladan, Konstitutsiyaning birinchi va ikkinchi moddalarida, "O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy, dunyaviy davlatdir" deb yozilgan. Bu prinsip inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.



Konstitutsiyaning 20-moddasi “Inson o‘z hayoti, qadri-qimmati va shaxsiyatining hafsizligiga ega” deb ta’kidlanadi. Bu har qanday shaxsning hayotiga, erkinligiga va shaxsiy qadr-qimmatiga hurmat qilish insonparvarlik tamoyilini ta’minlashga qaratilgan.

Konstitutsiyamizning 25-moddada e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda “Har bir shaxs o‘z fikrlari, e’tiqodlari va vafosiga xilof qilmay, o‘z fikrini bildirish huquqiga ega” deya qayd etilgan. Bu jamiyatda siyosiy, ijtimoiy va diniy erkinliklarni ta’minlashga yo‘naltirilganligidan dalolatdir.

Konstitutsiyada yana muhum e’tiborli jihati insonning shaxsiy qadri-qimmatiga hurmat va insonga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan qator normalar hamda prinsiplar belgilangan. Masalan: 18-modda: Bu moddada barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi va har qanday kamsitish, ayrimlik, nafratga yoki zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik ta’kidlangan. Bu prinsip har kimning o‘z hayotini o‘z e’tiqodiga, xohish-irodasiga muvofiq shakllantirish huquqi va insonparvarlik tamoyillarini ta’minlaydi.

Qomusimiz 14-moddasiga e’tibor qaratsak, bu modda har qanday insonning ravnaq topishi va o‘z huquqlarini himoya qilish huquqiga ega bo‘lishini, har qanday diskriminatsiyadan himoyalanihini nazarda tutadi.

Insonparvarlikning yana bir muhim jihati – tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashdir. Konstitutsiyada insonning hayoti va xavfsizligini ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, 25-modda: Har bir inson o‘z hayoti, qadr-qimmati va shaxsiy xavfsizligini ta’minlashga haqlidir. Bu, o‘z navbatida, insonparvarlikka yordam beradi va har qanday zo‘ravonlik, ma’naviy yoki moddiy qarshiliklarga qarshi kurashishni nazarda tutadi.

Konstitutsiyada inson huquqlarining himoyasini ta’minlash uchun sud organlarining roli ham alohida nazarda tutiladi. Unda huquqiy muammolarni hal qilishda insonparvarlik prinsiplariga amal qilish talab etilgan.



Konstitutsiyaning 46-moddasida: “Sudlar, xususan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, har qanday shaxs o‘zining huquqlarini sudda himoya qilishga va sud hukmlarini mustaqil va adolatli qabul qilishga haqlidir” deya ta’kidlangan.

Konstitutsiyada ijtimoiy adolat va insonning qonunga muvofiq ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga qaratilgan normalar ham bor. Bu orqali davlat o‘z fuqarolarini ijtimoiy xavfsizlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy himoya sohalarida qo‘llab-quvvatlaydi. Misol tariqasida, 38-42-moddalarida: Konstitutsiyada sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya va mexr-shafqat kabi ijtimoiy sohalarda inson huquqlari kafolatlangan. Bu normalar insonparvarlik va inson huquqlarini himoya qilishning muhim bir qismi sifatida ko‘rsatiladi.

Konstitutsiyada millatlararo va jamiyatlararo totuvlik, muloqot va hamjihatlikning qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, insonparvarlik tamoyillariga mos keladi va milliy va diniy farqlarning ijtimoiy tinchlikka xalaqit bermasligini ta’minlaydi. So‘zimizning isboti sifatida Konstitutsiyaning 16-moddasida qayd etilganidek, barcha millatlar va xalqlar o‘rtasida totuvlik va o‘zaro hurmatni ta’minlash Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. Bu davlatning diniy va etnik baxslarning oldini olishga va barcha fuqarolarni teng huquqlarga ega bo‘lishini ta’minlashga bo‘lgan qaratilgan siyosatini aks ettiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonparvarlik g‘oyalarini o‘zining asosiy mazmuni sifatida belgilagan. Unda inson sha’ni, huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyada bayon etilgan tamoyillar jamiyatda adolat, ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta’minlashda mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahriri). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.



2. Abdug'afforov S. *O'zbekiston konstitutsion huquqi asoslari*. – Toshkent: TDYU, 2021.
3. Karimov A. *Yangi O'zbekiston – insonparvar davlat*. – Toshkent: “Adolat”, 2023.
4. Jalilov R. *Fuqarolik jamiyati va konstitutsiyaviy qadriyatlar*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy hujjatlari. www.parliament.gov.uz